

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



Jizzax davlati pedagogika universiteti  
rektori, Prof. Sh. S. Sharipov

2022 yil 12.12.2022

**O'QITUVCHINING NUTOIY KOMPETENSIVASINI RIVOJLANTIRISH  
FANINING O'QUV DASTURI**

(1-kurs)

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim  
**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim  
**Mutaxassislik:** 5A 111701 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi  
va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)



|   |                                |                                     |                               |
|---|--------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------|
| <b>Fan/modul kodi</b><br>351O'NKRT04  | <b>O'quv yili</b><br>2022-2023 | <b>Semestr</b><br>2                 | <b>ECTS - Kreditlar</b><br>6  |
| <b>Fan/modul turi</b><br>Tanlov fan   | <b>Ta'lim tili</b><br>O'zbek   | <b>Haftadagi dars soatlari</b><br>6 |                               |
| <b>I. Fanning nomi</b>  | <b>Auditoriya</b>              | <b>mashg'ulotlari (soat)</b>        | <b>Mustaqil ta'lim (soat)</b> |
| <b>Fanning nomi</b>   | <b>Auditoriya</b>              | <b>mashg'ulotlari (soat)</b>        | <b>Mustaqil ta'lim (soat)</b> |
| <b>O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish</b>  | 90                             | 90                                  | 180                           |
| <b>2. I. Fanning mazmuni</b>  |                                |                                     |                               |
| <p>Nutq bu o'qituvchining kasbiy qurolidir. Magistratura mutaxassisligida tahsil oluvchi talabalarga "O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish" fanini o'qitish davomida o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan nutqiy kompetensiyasi haqida, nutqiy kompetensiyani shakllantiruvchi omillar haqida nazariy bilimlarga ega bo'ladi. Shuningdek, nutq madaniyati va notiqlik san'ati haqida, nutqning fazilatlari, nutq uslublarini o'rini qo'llash haqida bilib olish, fan atamaları bilan tanishadi va ularni og'zaki va yozma ifodalash, bals-munozarada qatnashish, ma'lumotni izlab topish va taqdimot qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. O'qituvchi nutqiga qo'yilgan talablarni bajarish orqali ravon va ta'sirchan nutq tuzish bo'yicha amaliy tajribalar o'rtiradi.</p> <p><b>Fanning maqsadi:</b> bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislariga madaniy nutq haqida to'la tasavvur berish, ularda adabiy nutq malakalarini shakllantirish va ta'sirchan nutqni takomillashirish yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b> Nutq madaniyatini o'rganish tarixiga oid ma'lumotlar berish, madaniy nutq, unga qo'yiladigan talablar haqida to'la ma'lumot berish, nutqning asosiy sifatleri (to'g'rilik, mantiqiyligi, aniqlik, soflik, ta'sirchanlik) to'g'risida ma'lumot berish, olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini, o'qituvchi nutq kompetensiyasini shakllantirish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).</b></p> <p><b>III. Fanning tarixiga qaydagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>I-mavzu. O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish fanning maqsad va vazifalari (2 soat)</b></p> <p>(Kirish. Nutq madaniyati haqida tushuncha. Nutq madaniyati fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Nutq faoliyati haqida tushuncha).</p> |                                |                                     |                               |

|  |
|--|
| <p><b>2-mavzu. O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish fanning boshqa fanlar bilan aloqasi (2 soat)</b></p> <p>Pedagogik kompetentlik tarkibida nutqiy kompetensiya. Nutq madaniyati fanning tishunoslikka aloqasi. Nutq madaniyati fanning boshqa fanlar bilan aloqasi</p> <p><b>3-mavzu. Nutq madaniyati va uning ijtimoiy o'rini (2 soat)</b></p> <p>Til va uning vazifalari. Til va nutq. Nutq madaniyati asoslari fanning maqsad va vazifalari. Nutq madaniyati muammosining asoslanishi. Til va nutq. Nutq madaniyati va til madaniyati. Nutq boyligi va til boyligi. Nutq odobi va nutqiy etiket tushunchalari. Mulohaza va muomala odobi.</p> <p><b>4-mavzu. Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari (2 soat)</b></p> <p>Nutq madaniyati, til me'yorlari.</p> <p><b>5-mavzu. Ritorika tarixi haqida ma'lumot (2 soat)</b></p> <p>Ritorika ilmining vujudga kelishi. Ritorika tarixi nazariyasi. Ritorika tarixida notiqlik mahorati. G'arb notiqligi maktablarning shakllanishi.</p> <p><b>6-mavzu. Notiqlik san'ati turlari (2 soat)</b></p> <p>Akademik, diniy, sud, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, sud notiqligi. Ijtimoiy-siyosiy notiqlikning nutqiy ko'rinishlari. Akademik notiqlikning nutqiy ko'rinishlari. Sud notiqligi. Ijtimoiy-maishiy notiqlik. Sharq notiqligi turlari haqida.</p> <p><b>7-mavzu. O'qituvchi nutqining to'g'riligi va sofligi (2 soat)</b></p> <p>Nutqning to'g'riligi barcha kommunikativ sifatlarning poydevori. Nutqning sofligi va unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlar.</p> <p><b>8-mavzu. O'qituvchi nutqining ifodaliligi va boyligi (2 soat)</b></p> <p>O'qituvchi nutqida ifodalilik. O'qituvchi nutqining boyligi va hozirjavoblik.</p> <p><b>9-mavzu. O'qituvchi nutqining aniqligi (2 soat)</b></p> <p>Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Nutqning aniqligi.</p> <p><b>10-mavzu. O'qituvchi nutqining mantiqiyligi va o'rini (2 soat)</b></p> <p>Nutqning mantiqiyligi. Nutqning o'rini.</p> <p><b>II-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati</b></p> <p>Nutqiy rivojlanish, o'quvchilar nutqini psixologik-pedagogik tadqiq qilish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchi leksikasi. Nutqni rivojlantirish metodikasi. Nutqiy rivojlanishga til qobiliyatlari.</p> |
|--|



**12-mavzu. O'quvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatishda o'qituvchi nutqi va unga qo'yiladigan talablar (2 soat)**

O'quvchilarning psixologik yoshini hisobga olish, yangi so'zlarni qo'llash jarayoni)

**13-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini shakllantirishga oid ishlar: vositalar va metodlar (2 soat)**

Nutqning vazifalari. Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

**14-mavzu. Nutq madaniyatini egallashning usuli va yo'llari (2 soat)**

Nutq madaniyati – nutqiy malaka. Og'zaki nutqning vaziraviy ko'rinishlarini tabiiy holda egallash. Tilni o'qitish va o'rgatish orqali egallash. Til va nutq madaniyatini mustaqil o'qish va shug'ullanish orqali egallash. Til va nutq madaniyatini namunali nutqlarga taqbid qilish orqali egallash.

**15-mavzu. Nutq texnikasi (2 soat)**

Nutqqa tayyorgarlik ko'rish yo'llari. Stressga qarshi kurash.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'ulot – bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol subbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitini ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

Amaliy mashg'ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar temalik rejalariga qar'iy amal qilingan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Ma'ruza darsi mavjud bo'lgan amaliy mashg'ulotlarda asosan ma'ruza darslarida o'tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustakamlanadi.

Amaliy mashg'ulot quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materialni hosil qilish;
- ko'nikmalarni hosil qilish;
- bilimlarni nazorat qilish.

Ta'lim beruvchi amaliy mashg'ulotni samarali o'tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o'zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo'lishi;
- o'quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- o'quv jarayonining texnik jihatlanishi.

Amaliy mashg'ulot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o'tkazadi. Xonaning darsga tayyorgarligi, doskaga yozish va o'chirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi. Darsda o'tiladigan mavzu e'lon qilinib, doskaga yozib qo'yiladi. O'tilgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejasini beriladi. Ma'ruza darslari mavjud bo'lgan fanlardan amaliy mashg'ulot darslari

albatta ma'ruza o'tilgandan keyin o'tkaziladi. Ma'ruza o'tilgan materiallarning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma'ruza bilan amaliy mashg'ulot bog'lanadi. Amaliy mashg'ulotlar fanning hattoki mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil usullarda o'tkazilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulot darslarida savol javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantirilib ball qo'yiladi. Amaliy mashg'ulot darslarining qar'iy dastur bo'yicha sifatli o'tilishini, talabalar bilimining o'z vaqtida baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek, amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi, amaliyot darslarida nimalarga alohida e'tibor qaratilishi, ma'ruza mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilganini va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib, fikrlashib turishi lozim.

**III.1. Amaliy mashg'ulot mavzulari:**

**1-mavzu. O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy mashqlar (4 soat)**

Reja:

1. Talabalarga nutq madaniyatining amaliy ko'rinishlari haqida bilim berish
2. Nafas mashqlarini o'rgatish

**2-mavzu. O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish fanining boshqa fanlar bilan aloqasini fanlar kesimida tahlil qilish (4 soat)**

Reja:

1. Kontentni eslab qolishga asoslangan o'quv dasturidan kompetensiyaviy yondoshuvga o'tish.
2. Nutq madaniyati fanining tilshunoslikka aloqasi
3. Nutq madaniyati fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

**3-mavzu. Nutq madaniyati va uning ijtimoiy o'rni (4 soat).**

Reja:

1. Til va uning vazifalari.
2. Mamlarni tinglash va anglagan holda o'qishni, lingvistik jihatdan to'g'ri bo'lgan hamda vaziyatga maos keluvchi og'zaki va yozma mamlarni tuzishni o'rganish.
3. Nutq odobi va nutqiy etiket tushunchalari. Mulogot va muomala odobi.

**4-mavzu. Nutq madaniyati va adabiy til kompetensiyasini shakllantirish (4 soat)**

Reja:

1. Adabiy til kompetensiyasini shakllantirishda til me'yorlarini bitish.
2. Nutqiy kompetensiyada eng kamida bita xorijiy tilda tanish va kundalik mavzular bo'yicha mulogot qilishni o'rganish.



**5-mavzu. Ritorika tarixi haqida ma'lumot (4 soat).**

**Reja:**

1. Ritorika ilmining vujudga kelishi.
2. Ritorika tarixi nazariyasi.
3. Ritorika tarixida notiqlik mahorati.
4. G'arb notiqligi maktablarining shakllanishi.

**6-mavzu. Notiqlik san'ati turlari (4 soat).**

**Reja:**

1. Akademik, diniy, sud, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, sud notiqligi.
2. Ijtimoiy-siyosiy notqikning nutqiy ko'rinishlari.
3. Akademik notqikning nutqiy ko'rinishlari.
4. Sud notqiligi.
5. Ijtimoiy-maishiy notqiklik.
6. Sharq notqiligi turlari haqida.

**7-mavzu. O'qituvchi nutqining to'g'riligi va sofligi (4 soat).**

**Reja:**

1. Nutqning to'g'riligi barcha kommunikativ sifatarning poydevori.
2. Nutqning sofligi va unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlar.

**8-mavzu. O'qituvchi nutqining ifodaliligi va boyligi (4 soat)**

**Reja:**

1. O'qituvchi nutqida ifodalilik.
2. O'qituvchi nutqining boyligi va hozirgavoblilik.

**9-mavzu. O'qituvchi nutqining aniqiligi (4 soat).**

**Reja:**

1. Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezonidir.
2. Nutqning aniqiligi.

**10-mavzu. O'qituvchi nutqining mantiqiyligi va o'rinaliligi (4 soat).**

**Reja:**

1. Nutqning mantiqiyiligi.
2. Nutqning o'rinaliligi.

**11-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati (4 soat)**

**Reja:**

1. Nutqiy rivojlanish, o'quvchilar nutqini psixologik-pedagogik tadqiq qilish.
2. Boshlang'ich sinflarda o'quvchi leksikasi.
3. Nutqni rivojlantirish metodikasi. Nutqiy rivojlanishda til qobiliyatlari.

**12-mavzu. O'quvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatishda o'qituvchi nutqi va unga qo'yiladigan talablar (4 soat)**

**Reja:**

1. O'quvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatishda o'qituvchi nutqi
2. O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar.

**13-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini shakllantirishga oid ishlar: vositalar va metodlar (4 soat)**

**Reja:**

1. Nutqning vazifalari.
2. Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

**14-mavzu. Nutq texnikasi. Nutqqa tayyorgarlik ko'rish (4 soat).**

**Reja:**

1. Nutq madaniyati – nutqiy malaka.
2. Og'zaki nutqning vaziraviy ko'rinishlari.
3. Tilni tabiiy holda egallash.
4. Tilni o'qitish va o'rgatish orqali egallash.

**15-mavzu. O'qituvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantiruvchi mashqlar (4 soat)**

**Reja:**

1. Lab mashqlari
2. Jag' mashqlari
3. Ovoz mashqlari

**IV. Mustaqil ta'lim bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (jami: 90 soat)**

Talabalarining mustaqil ta'limi o'qituvchi rahbarligida quyidagi (O'RTMI-40 soat) va mustaqil tarzda (TMI-50 soat) shakllar orqali amalga oshiriladi. Berilgan mavzular yuzasidan talabalar ijodiy yondoshgan holda topshiriqlarni bajaradilar:

**IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Nutq madaniyatini egallashning usuli va yo'llari mavzusi bo'yicha berilgan muammoni SWOT tahlili qilish (4 soat)
2. Nutqqa tayyorgarlik ko'rish mavzusi bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so'z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to'liqligi va so'zlar soni e'tiborga olinadi. (4 soat)
3. Disterviy ta'limotida o'qituvchi nutqiga qo'yilgan talablar bo'yicha referat yozish (4 soat)



|  |   |
|--|---|
| <p>4. Nutq madaniyati va adabiy til me'yorlari mavzusi yuzasidan qisqacha intervyu olinadi va o'rganiladi. (4 soat)</p> <p>5. "Ritorika tarixi haqida ma'lumot. Ritorika va nutq madaniyatining bir-biridan farqli jihatlari" mavzusi bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so'z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to'liqligi va so'zlar soni e'tiborga olinadi. (4 soat)</p> <p>6. Rahimboy Jumaniyozovning no'vchi mahorati o'rganish (4 soat)</p> <p>7. Na'fas mashqlari va uning ahamiyati (4 soat)</p> <p>8. Sahna nutqi va uni o'rganish (4 soat)</p> <p>9. Ingliz tilida o'ila haqida qisqacha matn tuzish (4 soat)</p> <p>10. Ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan taqdimot qilish (4 soat).</p> <p>Talaba mustaqil ta'limda o'qituvchi tomonidan hech qanday ko'rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabning o'zi qiziqishlaridan kelib chiqib bu soatlarda kutubxonadan, internetdan va boshqa manbalardan mustaqil ravishda ma'lumot izlaydi va materiallarni o'rganadi, telegram guruhiga yoki o'qituvchiga murojaat qiladi, o'qituvchi testlarni ishlaydi.</p> | <p>5. <b>V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- nutq madaniyati fanining paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyoti, uning o'quv-tarbiya jarayoni tashkil qilishdagi o'rni va ahamiyati, kursning maqsad va vazifalari, uning kursda o'rganiladigan masalalarning bo'lajak o'qituvchilar uchun ahamiyati, o'qituvchi nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasini ta'minlash, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirish va boshqalar haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- nutq o'stirish va lug'at ustida ishlashning samarali usullarini farqlay olish, nutqda adabiy til mezonlari buzilishining obyektiv (nutqqa hududiy va ijtimoiy dialektlarning, boshqa sistemalardagi tillarning ta'siri) va subyektiv (tini yetarli darajada bilmaslik, nutq tuzishga e'tiborsizlik, nutqiy ko'nikmalarning zaiflashuvi va b.) sabablarini anglash, nutqiy ta'sir ko'rsatishning eng qulay, foydali shakllari, usullari va vositalarini izohlay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- nutqda adabiy til mezonlari buzilishining obyektiv (nutqqa hududiy va ijtimoiy dialektlarning, boshqa sistemalardagi tillarning ta'siri) va subyektiv (tini sabablarini yetarli darajada bilish, nutq tuzish, so'z urug' usi mezonlari va nutqda bu mezonlarning to'g'ri qo'llash, o'z va o'zlashtirgan, shuningdek, olimlarning so'zlarida urug' uni to'g'ri qo'yish va kelib chiqish sabablarini aniqlash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- SWOT-tahlil;</li> <li>- seminarlar (manitqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- guruhlarda ishlash;</li> </ul> |
| <p>6.</p>  |   |

|   |  |
|---|--|
| <p>7.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- taqdimotlarni qilish;</li> <li>- individual loyihalarni;</li> <li>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalarni.</li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar.</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida amaliy va seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (jufflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi (7 ball).</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p> | <p>8.</p> <p style="text-align: center;"><b>VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b></p> <p><b>Rahbariy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, Toshkent sh., 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. M.IIstroil, L.I. Tashmuxeimedova. No'vchi san'ati. T. Noshir. 2019. O'quv qo'llanma.</li> <li>2. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" (Darslik). T. "BarkamolFayzmedia", 2018. 432 bet.</li> <li>3. Karimov S. Nutq madaniyati va mulohaza san'ati. Samarqand. Samdu nashr. 2020. O'quv qo'llanma.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. O'ZROO'MTV/ T.</li> </ol> |
|---|--|



